

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- aprel holatiga **3348,5** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **13,1** ming kishiga yoki **0,4 %** ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1437,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,9 %**), qishloq aholisi soni **1911,0** ming kishini (**57,1 %**) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2021- yil yanvar-mart

- Aholi soni **13,1** ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **19,4** ming nafarni tashkil etdi.
- 3,4** ming ta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarda **5,2** ming ta nikoh va **0,7** ming ta ajralishlar ro'yyatga olindi.

## Qashqadaryo viloyati aholisining umumiyo'sishi (2021- yil yanvar-mart oylarida)

Tug'ilganlar  
19,4  
ming bola

Tabiiy o'sish  
16,0  
ming kishi

Vafot etganlar  
3,4  
ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
13,1  
ming kishi

Ko'chib kelganlar  
4,0  
ming kishi

Mexanik  
o'sish  
(kamayish)  
-2,9  
ming kishi

Ketganlar  
6,9  
ming kishi

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (1-aprel holatiga, ming kishi)**

	2020- yil	2021- yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish yoki kamayish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3293,9</b>	<b>3348,5</b>	<b>101,7</b>
Qarshi sh.	<b>275,9</b>	<b>279,6</b>	<b>101,3</b>
Shahrisabz sh.	<b>139,4</b>	<b>140,9</b>	<b>101,1</b>
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	<b>204,3</b>	<b>208,5</b>	<b>102,1</b>
Dehqonobod	<b>147,6</b>	<b>150,4</b>	<b>101,9</b>
Qamashi	<b>271,9</b>	<b>275,7</b>	<b>101,4</b>
Qarshi	<b>248,6</b>	<b>253,9</b>	<b>102,1</b>
Koson	<b>285,7</b>	<b>291,8</b>	<b>102,1</b>
Kitob	<b>264,7</b>	<b>267,2</b>	<b>100,9</b>
Mirishkor	<b>119,5</b>	<b>122,0</b>	<b>102,1</b>
Muborak	<b>87,0</b>	<b>88,7</b>	<b>102,0</b>
Nishon	<b>153,2</b>	<b>156,2</b>	<b>102,0</b>
Kasbi	<b>196,6</b>	<b>200,5</b>	<b>102,0</b>
Chiroqchi	<b>412,3</b>	<b>422,1</b>	<b>102,4</b>
Shahrisabz	<b>222,9</b>	<b>224,2</b>	<b>100,6</b>
Yakkabog'	<b>264,3</b>	<b>266,8</b>	<b>100,9</b>


Hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1-aprel holatiga eng ko'p aholi soni Chiroqchi tumanida **422,1** ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi **12,6 %**) va Koson tumanida **291,8** ming kishini (**8,7 %**), Qarshi shahrida **279,6** ming kishini (**8,4 %**), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida **88,7** ming kishini (**2,6 %**) va Mirishkor tumanida **122,0** ming kishini (**3,6 %**) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumanida **2,4 %** ni, G'uzor, Qarshi, Koson, Mirishkor tumanlarida **2,1 %** ni, Muborak, Nishon va Kasbi tumanlarida **2,0 %** ni, va aksincha eng kam o'sish sur'ati Shahrisabz tumanida **0,6 %** ni, Kitob tumani va Yakkabog' tumanlarida **0,9 %** ni va Shahrisabz shahrida **1,1 %** ni tashkil etdi.


## Demografik holat



### **Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)**



### **Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2021- yil 1- aprel holatiga, % da)**



**Doimiy aholi sonining hududlar kesimida  
jinslar bo'yicha taqsimlanishi**

	Jami	Erkaklar	Ayollar
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3348,5</b>	<b>1694,3</b>	<b>1654,2</b>
Qarshi sh.	279,6	139,8	139,8
Shahrisabz sh.	140,9	71,6	69,3
tumanlar:			
G'uzor	208,5	105,8	102,7
Dehqonobod	150,4	76,1	74,3
Qamashi	275,7	139,9	135,8
Qarshi	253,9	126,1	127,8
Koson	291,8	147,9	143,9
Kitob	267,2	135,9	131,3
Mirishkor	122,0	62,2	59,8
Muborak	88,7	44,8	43,9
Nishon	156,2	78,2	78,0
Kasbi	200,5	102,3	98,2
Chiroqchi	422,1	214,7	207,4
Shahrisabz	224,2	113,9	110,3
Yakkabog'	266,8	135,1	131,7



**Tug'ilish.** 2021- yilning yanvar-mart oylarida **19,4** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,5** promille ni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **1,5** promillega (2020- yilning yanvar-mart oylarida **22,0** promille) ko'paygan.

Tug'ilish koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Shahrisabz shahrida (**16,2** promilledan **21,4** promillega), Qarshi shahrida (**18,6** promilledan **27,0** promillega) o'sish va Nishon (**24,7** promilledan **22,1** promillega), Muborak (**24,4** promilledan **21,6** promillega), G'uzor (**24,4** promilledan **23,0** promillega), Yakkabog' tumanlarida (**23,2** promilledan **21,6** promillega) kamayish kuza-tildi.




O'g'il bolalar: **10,0** ming nafar      Qiz bolalar: **9,4** ming nafar

#### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mayjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm

#### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart)



**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni birlik,  
o'sish yoki kamayish sur'ati % da (yanvar-mart)**


	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>18021</b>	<b>19377</b>	<b>107,5</b>
Qarshi sh.	1277	1857	145,4
Shahrisabz sh.	560	744	132,9
tumanlar:			
G'uzor	1237	1182	95,6
Dehqonobod	890	1044	117,3
Qamashi	1633	1674	102,5
Qarshi	1276	1206	94,5
Koson	1557	1734	111,4
Kitob	1354	1404	103,7
Mirishkor	545	634	116,3
Muborak	526	472	89,7
Nishon	939	848	90,3
Kasbi	1074	1000	93,1
Chiroqchi	2586	3131	121,1
Shahrisabz	1047	1026	98,0
Yakkabog'	1520	1421	93,5



**Vafot etganlar.** 2021- yilning yanvar-mart oylarida **3,4** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,1** promilleni tashkil etdi (2020- yilning yanvar-mart oylarida **3,7** promille ).


O'lim koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Dehqonobod tumanida (**3,0** promilledan **3,3** promillega), Chiroqchi tumanida (**3,0** promilledan **3,7** promillega), Koson tumanida (**3,3** promilledan **3,9** promillega), Qarshi shahrida (**3,5** promilledan **4,6** promillega) Shahrisabz tumanida (**3,5** promilledan **4,8** promillega) o'sish va aksincha Yakkabog' tumaniда (**4,5** promilledan **4,0** promillega) va Mirishkor tumanida (**4,0** promilledan **3,8** promillega) kamayish kuzatildi.

## Vafot etganlar



Erkaklar: **1,9** ming kishi  
Ayollar: **1,5** ming kishi

**Tumanlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2021- yil yanvar-mart)




**Hududlar kesimida o'lganlar soni birlik, o'sish yoki kamayish sur'ati % da  
(yanvar-mart)**

	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3021</b>	<b>3378</b>	<b>111,8</b>
Qarshi sh.	242	317	131,0
Shahrisabz sh.	133	134	100,8
tumanlar:			
G'uzor	196	246	125,5
Dehqonobod	110	123	111,8
Qamashi	260	309	118,8
Qarshi	276	275	99,6
Koson	234	283	120,9
Kitob	240	245	102,1
Mirishkor	120	114	95,0
Muborak	83	81	97,6
Nishon	135	138	102,2
Kasbi	198	199	100,5
Chiroqchi	310	387	124,8
Shahrisabz	191	266	139,3
Yakkabog'	293	261	89,1

2021- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning **57,2** % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,2** % i o'simtalardan, **5,0** % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **4,9** % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,1** % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **1,2** % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda **18,4** % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingen 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni **193** nafarni tashkil etib, ularning **59,6** % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, **24,3** % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **3,1** % i tug'ma anomaliyalardan, **1,6** % i yuqumli va parazitar kasalliklardan, **3,1** % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **0,5** % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va **7,8** % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### **Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi** (jami vafot etganlarga nisbatan % da)



### **2021- yil yanvar-mart**

**Tabiiy o'sish.** 2021- yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi **16,0** ming kishini tashkil etib, 2020- yil mos davriga nisbatan **1,0** ming kishiga (2020- yilning yanvar-mart oylarida **15,0** ming kishi) o'sgan.



**Tabiiy o'sish: 16,0 ming kishi**


**Nikoh.** 2021- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan **5,2** ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti **6,3** promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish Qarshi shahrida (**169,1** %), Kasbi tumanida (**147,7** %), Qarshi tumanida (**133,9**%), Dehqonobod tumanida (**133,5** %) va eng yuqori kamayish Shahrisabz shahrida (**94,7** %) ga to'g'ri kelmoqda.


**Nikohdan ajralishlar.** 2021- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan **0,7** mingta, nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish Qarshi (**265,2** %), Kitob (**202,6** %), Yakkabog' (**197,2** %), Shahrisabz (**193,5** %), Chiroqchi (**187,1** %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart )



## Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart)



**Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o'sish yoki kamayish sur'ati % da (yanvar-mart)**

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>4131</b>	<b>5223</b>	<b>126,4</b>	<b>454</b>	<b>716</b>	<b>157,7</b>
Qarshi sh.	317	536	169,1	75	102	136,0
Shahrisabz sh.	189	179	94,7	35	44	125,7
tumanlar:						
G'uzor	229	292	127,5	22	38	172,7
Dehqonobod	188	251	133,5	20	34	170,0
Qamashi	292	377	129,1	30	41	136,7
Qarshi	277	371	133,9	23	61	265,2
Koson	363	405	111,6	38	43	113,2
Kitob	313	388	124,0	39	79	202,6
Mirishkor	151	170	112,6	10	10	100,0
Muborak	107	119	111,2	16	16	100,0
Nishon	233	285	122,3	22	31	140,9
Kasbi	193	285	147,7	26	28	107,7
Chiroqchi	573	712	124,3	31	58	187,1
Shahrisabz	352	408	115,9	31	60	193,5
Yakkabog'	354	445	125,7	36	71	197,2



**Migratsiya.** 2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni **4,0** ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa **6,9** ming kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosi minus **2,9** ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus **1,6** ming kishi bo'lган.



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yakkabog' tumanida (minus **0,5** ming kishi), Chiroqchi tumanida (minus **0,5** ming kishi), Kitob tumanida (minus **0,4** ming kishi), Qamashi tumanida (minus **0,4** ming kishi) qayd etildi.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi yanvar-mart)



	2020- yil	2021- yil
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3,0	4,0
<b>Ko'chib ketganlar</b>	4,6	6,9
<b>Migratsiya saldosi</b>	-1,6	-2,9

**Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni  
va migratsiya saldosi, kishi (yanvar-mart)**

	Ko'chib kelganlar		Ko'chib ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Qashqadaryo viloyati:</b>	<b>3037</b>	<b>4003</b>	<b>4594</b>	<b>6861</b>	<b>-1557</b>	<b>-2858</b>
Qarshi sh.	609	879	641	1062	-32	-183
Shahrisabz sh.	94	269	264	487	-170	-218
tumanlar:						
G'uzor	91	174	237	267	-146	-93
Dehqonobod	75	5	215	314	-140	-309
Qamashi	110	158	331	512	-221	-354
Qarshi	603	793	425	404	178	389
Koson	142	162	275	395	-133	-233
Kitob	142	134	394	550	-252	-416
Mirishkor	63	95	124	152	-61	-57
Muborak	108	157	114	131	-6	26
Nishon	313	333	269	358	44	-25
Kasbi	96	117	226	267	-130	-150
Chiroqchi	82	173	421	629	-339	-456
Shahrisabz	315	369	265	680	50	-311
Yakkabog'	194	185	393	653	-199	-468



## Aholi migratsiyasi ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar (yanvar-mart)



Viloyat statistika boshqarmasi Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
(75) 220-04-10 (75) 221-15-84